O‘RMON XO‘JALIGI YERLARINI HISOBGA OLISH VA ULARNING TABIIY-IQLIMIY SHAROITLARINI KOMPLEKS BAHOLASH

K.H.Jurayev
Buxoro davlat texnika universiteti “Kadastr va qurilish muhandisligi” kafedrasi assistenti, t.f.f.d. (PhD)
J.H.Jo‘rayev
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jalgini mexanizatsiyalash muhandisligi instituti Milliy tadqiqot universiteti magistranti

Annotatsiya Maqolada o‘rmon xo‘jaligi yerlarini hisobga olish va ularning tabiiy-iqlimiy sharoitlarini kompleks baholash masalalari yoritiladi. O‘rmon fondi yerlarining maydoni, joylashuvi, foydalanish holati va sifat ko‘rsatkichlarini tizimli ravishda qayd etishning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, relyef, tuproq, harorat, yog‘in miqdori, namlik va boshqa iqlim omillarining o‘rmonlarning o‘sishi hamda rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘rmon xo‘jaligi yerlari, yer hisobi, o‘rmon fondi, tabiiy sharoit, iqlim ko‘rsatkichlari, kompleks baholash, tuproq, relyef, o‘rmon resurslari, yerdan oqilona foydalanish.

Аннотация В статье рассматриваются вопросы учёта земель лесного хозяйства и комплексной оценки их природно-климатических условий. Раскрывается значение систематической регистрации площади, местоположения, состояния использования и качественных характеристик земель лесного фонда. Анализируется влияние рельефа, почв, температуры, количества осадков, влажности и других климатических факторов на рост и развитие лесов.

Ключевые слова: земли лесного хозяйства, учёт земель, лесной фонд, природные условия, климатические показатели, комплексная оценка, почва, рельеф, лесные ресурсы, рациональное использование земель.

Abstract This article examines the accounting of forestry lands and the comprehensive assessment of their natural and climatic conditions. It outlines the importance of systematically recording the area, location, use status, and quality indicators of forest fund lands. The influence of relief, soil, temperature, precipitation, humidity, and other climatic factors on forest growth and development is analysed.

Keywords: forestry lands, land accounting, forest fund, natural conditions, climatic indicators, comprehensive assessment, soil, relief, forest resources, rational land use.

O‘zbekistonning umumiy yer maydoni 44,9 million gektar (~448,978 km²) bo‘lib, agar rasmiy 8,49% o‘rmon yerlari deb hisobga olsak, 3,74 mln ga o‘rmonli yer, qolgan ≈41,2 mln ga yer o‘rmon bilan qoplanmagan hisoblanadi. O‘rmon xo‘jaligi agentligi tomonidan keltirilgan 4,4 mln gektar (10,6 %) o‘rmonli yerlar to‘g‘risidagi rasmiy ma’lumotlar asosida hisob-kitob qilinsa, umumiy yer maydonidan o‘rmon bilan qoplangan hududlar chiqarib tashlanganda taxminan 40,5 mln gektar maydon o‘rmon bilan qoplanmagan yerlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Mazkur ko‘rsatkich mamlakat hududida o‘rmon qoplamasining nisbatan past ulushga egaligini hamda yer resurslaridan foydalanishda ekologik barqarorlikni ta’minlash, ayniqsa, eroziya va cho‘llanish jarayonlarining oldini olishda o‘rmonlashtirish tadbirlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi turli xil o‘rmon ekotizimlariga, jumladan, keng bargli va ignabargli o‘rmonlarga, shuningdek, dasht va cho‘l ekotizimlariga ega mamlakat hisoblanadi. So‘nggi yillarda, O‘zbekistonda geografik axborot tizim va texnologiyalaridan foydalangan holda o‘rmonlarni

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

boshqarish amaliyotini takomillashtirish hamda o‘rmon resurslarini geofazoviy tahlillarini chuqurroq tadqiq etish ustida bir qator ilmiy ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-yanvardagi 31-sonli “O‘rmonlarning davlat hisobini va monitoringini yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 4-martdagi 93-sonli “O‘rmon fondi yerlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlariga O‘rmon xo‘jaligi - ijtimoiy ishlab chiqarish tarmog‘i hisoblanadi. O‘rmon xo'jaligi agentligi o‘rmonlarni o‘rganish, daraxtlarni o‘stirish va yog‘och sanoatini yo‘lga qo‘yish va kesiluvchi resurslarni qayta tiklash, o‘rmonlarni hisobga olish ishlarini amalga oshiradi.

O‘zbekistonda zamonaviy shakldagi birinchi o‘rmon xo‘jaligi 1873-yil hozirgi Bo‘stonliq tumani hududida tashkil etilgan. 1875-yilda Turkiston tog‘ tizmasining Molguzar tarmog‘i yon bag‘rida Zomin o‘rmonzor dam olish maskani o‘rmon xo‘jaligi, 1890-yilda To‘rtko‘l o‘rmon xo‘jaligi ish boshladi. 1925-yilgacha respublikada umumiy maydoni 642,3 ming ga bo‘lgan 16 ta o‘rmon xo‘jaligi va 36 ta o‘rmonzor dam olish maskanlari bor edi. 1996-yilda respublikada o‘rmon xo‘jaligi korxonalari, qo‘riqxona va parklar soni 90 taga yetdi. O‘zbekistonda Toshkent, Chirchiq, Bekobod, Sirdaryo, Samarqand, Zomin, Shofirkon, Peshku, Qorako‘l, Qarshi, Qumdaryo, Koson, Yakkabog‘, Termiz, Bobotog‘, Denov, Uzun, Baxmal, Nukus, To‘rtko‘l, Farg‘ona, Qo‘qon, Andijon, Namangan va boshqalar 70 ga yaqin o‘rmon xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatadi (1-rasm).




1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi o‘rmon fondi yerlari[1]

O‘rmon fondi yerlari alohida ekologik ahamiyatga ega bo‘lib, o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek, o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlardir. O‘rmon fondi yerlarining 2024 yil 1 yanvar holatiga umumiy yer maydoni 12 092,5 ming gektarni yoki jami yer maydonining 26,9 foizini tashkil qiladi (Milliy hisobot - 2024) (2-rasm).

[1] https://urmon.gov.uz/davlat-o%27rmon-fondi-yerlarining-xaritasi

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.



2-rasm. O‘rmon fondi yerlarini viloyatlar kesimida taqsimlanish diagrammasi (ming. ga. hisobida)

O‘rmon hududlarining ekologik ahamiyati va tiklanish jarayonining uzoq davom etishini hisobga olib, ularni muhofaza qilish va qayta tiklashga ustuvor e’tibor qaratish zarur. Shu sababdan 1991-yildan boshlab, qishloq xo‘jalik korxona va tashkilotlari foydalanishida bo‘lgan o‘rmon bilan qoplangan yaylov va pichanzorlar maydonlari belgilangan tartibda o‘rmon fondi yerlari toifasiga o‘tkazilgan (1-jadval). Bu esa, o‘rmon fondi yerlari maydonini ko‘paytirish va shu asosda tuproqlar degressiyalanishi va xo‘jalik maqsadlarida o‘rmon daraxtlari kesilishining oldini olishda muayyan darajada qulay sharoit yaratadi.

1-jadval

O‘rmon fondi yerlari taqsimoti[2]

T/r	Hududlar nomi	Umumiy yer maydoni	jumladan: sug‘oriladigan yer	Ekin yerlar	Ko‘p yillik daraxtzorlar					Bo‘z yerlar	Pichanzor va yaylovlar	jami qishloq xo‘jaligi yerlari	Tomorqa yerlari	O‘rmonzorlar	Butazorlar	Boshqa yerlar
					Jami	bog‘	uzumzor	tutzor	boshqa daraxtlar							
1	QQR	6732,2	7,7	3,8	0,2	0,1			0,1	1,3	624,9	630,2	0,1	966,5	1227,5	3907,9
2	Andijon	11	2,8	0,9	0,3	0,3				0,4	4,5	6,1		1,6		3,3
3	Buxoro	557,2	1,3	0,4	0,1				0,1	0,4	148,1	149	0,1	324,5	40	43,6
4	Jizzax	275,	2,	2,	2,	1,		0,	1,	0,	114,	119,	0,	128,		27,1

[2] *Milliy hisobot - 2024*

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

		3	1	3	8	4		1	3	1	3	5	3	4		
5	Qashqadaryo	316,7	2,9	3,6	0,3	0,2	0,1			0,9	132,7	137,5	1,3	135,7		42,2
6	Navoiy	3005,1	1,2	3	0,3	0,1			0,2	0,1	1591,9	1595,3		1270,9		138,9
7	Namangan	152,4	3,2	0,6	0,7	0,5		0,1	0,1	0,1	102	103,4	0,2	17,8		31
8	Samarqand	56,3	4,3	2,8	4	3,9			0,1		31,8	38,6	0,4	7,7		9,6
9	Surxondaryo	299,1	3,1	1,7	0,6	0,1		0,1	0,4		66,3	68,6	0,4	157,9		72,2
10	Sirdaryo	9,7	4	2	0					0,5	1,4	3,9		1,5		4,3
11	Toshkent	578,8	3,2	2,2	2,1	2			0,1		220,2	224,5	0,3	70,3	0,6	283,1
12	Farg‘ona	19,2	8,3	0,3	1	0,9			0,1		0,4	1,7	0,1	7,1		10,3
13	Xorazm	79,5	1,3	1,2	0,1				0,1		50,9	52,2		23,7		3,6
14	Toshkent sh.		7,7		0,1				0,1							
	Jami	**12092,5**	**53,1**	**24,8**	**12,6**	**9,5**	**0,1**	**0,3**	**2,7**	**3,8**	**3089,4**	**3130,5**	**3,2**	**3113,6**	**1268,1**	**4577,1**

Bugungi kunda mamlakatimizning iqtisodiy sharoitlari samarali boshqaruv muammolarini hal qilishga e'tibor qaratishga majbur qiladi. Buning sababi, ishlab chiqarish tadbirlarini rejalashtirishda samaradorlik omilidan tashqari, yana bir muhim parametr - rentabellikni hisobga olish zarurligidir. Bunday yondashuv mavjud resurslar va imkoniyatlarni eng samarali taqsimlash orqali optimal natijalarga erishishga imkon beradi.


O‘rmon fondi yerlari – o‘rmon daraxtlari bilan qoplangan, shuningdek, o‘rmonga qo‘shilmagan yakka daraxtlar, jarliklar atrofiga ekilgan daraxtlar, qiyalik, balandlik, daryo qirg‘oqlariga suv havzalari atroflariga qumliklar yonlarida, o‘rmon – bog‘ yerlari, o‘rmon ko‘chatzorlari, shuningdek, daraxtlari kesib olingan o‘rmon yerlari, ochiq qolgan yerlar, siyraklashib qolgan o‘rmonlar, yog‘och kesish uchun ajratilgan yerlar va yong‘indan nobud bo‘lgan (yong‘inga uchragan) o‘rmon ko‘chatzorlari yerlaridir. O‘rmonzorlar uchun ko‘chat yetishtirishga ajratilgan yer maydonlari o‘rmon ko‘chatxonasidir. O‘rmon uchun ko‘chatzorlar: urug‘likdan olinadigan ko‘chatzor, ko‘chat ekish uchun yer bo‘limlari birlamchi (boshlang‘ich) ko‘chat ekish yerlari, ko‘kargan qalamchalar va qalamcha qilib ekiladigan ko‘chatzor bo‘limlariga bo‘linadi.

O‘rmon qoplamining muhimligining yana bir sababi shundaki, u atmosferada uglerodni ushlash usulini ta'minlaydi. Daraxtlar atmosferadagi karbonat angidridni (CO2) ushlash, uni qayta ishlash va kislorod (O2) sifatida chiqarish uchun javobgardir. Shuning uchun daraxtlar global isishga qarshi

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

kurashda juda muhimdir. O‘rmonlar yetarli darajada qoplanmasa, global isish yanada yomonlashishi mumkin.

O‘rmonlar asosan ekologik (muhofaza qilish, sanitariya-gigiyenik, sog‘lomlashtirish va rekreasion) vazifalar hamda ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajaradi. O‘rmon daraxtzorlari qishloq xo‘jaligi ekinlarini suv va shamol eroziyasidan himoya qilishga, sel oqimlarini sizot suvlariga aylantirishga, ko‘chma qumlarni mustahkamlashga hamda cho‘llanishga qarshi kurashishga xizmat qiladi (3-rasm).



3-rasm. O‘rmon xo‘jaligi sohasida tizimli muammolar sxemasi

Ushbu sxemada keltirilgan o‘rmon xo‘jaligi tizimidagi muammolar O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi sohasini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (PQ–4850-son, 2020 yil 6 oktabr) hujjatida qayd etilgan tahliliy ma’lumotlarga asoslanadi. Mazkur konsepsiyada o‘rmonlarni saqlash, qayta tiklash va ko‘paytirish, shuningdek, o‘rmon resurslaridan oqilona foydalanish jarayonlarida mavjud tizimli kamchiliklar, ularni bartaraf etish yo‘nalishlari hamda tarmoqni modernizatsiya qilish bo‘yicha strategik vazifalar belgilab berilgan.

O‘rmonlarning davlat hisobini yuritish davlat o‘rmon fondi yerlari doimiy foydalanishga berib qo‘yilgan o‘rmon xo‘jaligi tashkilotlari tomonidan ularga yillik ajratiladigan O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari doirasida hamda ularning o‘z mablag‘lari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi belgilangan.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

O‘rmonlarning davlat hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasining O‘rmon xo‘jaligi agentligi tomonidan o‘rmon fondi tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlarni nazorat qilish hamda o‘rmonlarning miqdor va sifat holatiga davriy aniqlik kiritib borish maqsadida amalga oshiriladi.

O‘rmonlarning davlat hisobini yuritishda o‘rmonlar holatida bo‘layotgan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rmonlarni kuzatish va boshqa o‘rganish materiallari asosida o‘rmon xo‘jaligini yurituvchi subyektlar tomonidan har yili o‘rmon kadastri va hisobga olish hujjatlariga kiritib boriladi. O‘rmonlarning davlat hisobini yuritish hujjatlarida davlat o‘rmon fondining hududiy, geografik joylashuvi, maydoni, qo‘riqlanish toifalari, o‘rmonzorlarning tur tarkibi, daraxt va butalarning turlari, ular zaxirasining miqdori va sifat ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlar aks ettiriladi.


O‘rmonzorlar mavjud bo‘lgan boshqa vazirlik va idoralar tizimidagi tashkilotlarga o‘rmonlarning davlat hisobi yuritilishida Agentlik va uning hududiy organlari tomonidan amaliy yordam ko‘rsatiladi. O‘zbekiston Respublikasida davlat o‘rmon fondi yerlarining toifalar bo‘yicha taqsimlanishi, ularning hisobini yuritish va qo‘riqlanish darajasini belgilash jarayoni “O‘rmon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun (2020 yil 16 dekabr, O‘RQ–657-son) hamda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 5 martdagi 122-son qarori (“O‘rmonlarning davlat hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”) asosida amalga oshiriladi. Mazkur hujjatlarga muvofiq, Davlat o‘rmon fondining yer turlari va o‘rmonlarning qo‘riqlanish toifalari bo‘yicha taqsimlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar tegishli tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlari bilan kelishilgan holda rasmiylashtiriladi. Ushbu bo‘limlar Kadastr agentligi huzuridagi hududiy yer resurslari va davlat kadastri boshqarmalarining tarkibiy tuzilmalari hisoblanadi va ular o‘rmon yerlarining huquqiy maqomini belgilash, xaritalash hamda elektron kadastr tizimiga kiritish ishlarini amalga oshiradi.

O‘rmonlarning davlat hisobini yuritish hujjatlari viloyat, tuman (shahar)lar bo‘yicha Agentlikning hududiy organlari tomonidan umumlashtiriladi. Davlat o‘rmon fondi yerlari o‘zlariga doimiy foydalanishga berib qo‘yilgan o‘rmon xo‘jaligi tashkilotlari hamda o‘rmonzorlar mavjud bo‘lgan subyektlar o‘rmonlarning davlat hisobini yuritish hujjatlarini o‘rmonlarning davlat hisobi o‘tkazilgan yildan keyingi yilning 1-fevraliga qadar Agentlikning hududiy organlariga taqdim etishlari shart. O‘rmonlarning davlat hisobini yuritish hujjatlarini umumlashtirish ishlari yakunlangandan so‘ng davlat o‘rmon fondining yer turlari va o‘rmonlarning qo‘riqlanish toifalari bo‘yicha taqsimlanishini tasdiqlash to‘g‘risida tegishli tuman (shahar) hokimining qarori o‘rmonlarning davlat hisobi o‘tkazilgan yildan keyingi yilning mart oyi 15 sanasiga qadar qabul qilinadi va ushbu qaror 15 kun muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi yoki tegishli viloyat hokimining qarori bilan tasdiqlanadi.

Mamlakatimizda 8 ta yer fondi toifalari mavjud bo‘lib, shu toifalardan oltinchisi o‘rmon fondi yerlaridir. O‘rmon fondi yerlarida o‘rmonlarni saqlab qolish va o‘rmonlardagi daraxtlarni ko‘paytirish maqsadida o‘rmon xo‘jaliklari tashkil qilingan.


O‘rmon fondi yerlari 2010 yilda 9462,300 gani, 2011 yilda 9629,600 gani, 2012 yilda 9635,900 gani, 2013 yilda 9636,900 gani, 2014 yilda 9630,000 gani, 2015 yilda 97523000 gani , 2016 yilda 9773000 gani, 2017 yilda 11191,900 gani, 2018 yilda 11153,300 gani, 2019 yilda 11199,500 gani, 2020 yilda 12020,800 gani, 2021 yilda 12021,400 gani, 2022 yilda 12057,300 gani, 2023 yilda 11738,100 gani, 2024 yilda 12092,500 gani, tashkil etadi (4-rasm).

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.



4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi o‘rmon fondi yerlarinining yillik tahlili

Davlat o‘rmon kadastri O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi agentligi tomonidan yuritiladi (5-rasm).



5-rasm. Davlat o‘rmon kadastri ma’lumotlarining DKYaTga kiritilganlik ko‘rsatkichlari


O‘rmon xo‘jaligi kartalarini yaratishga kirishilgan kundan boshlab ular uchun zarur bo‘ladigan materiallarni aniqlab, yig‘ib, o‘rganib va uni qayta ishlash boshlanadi. Kartani tuzishdan oldin uning uchun qanday materiallar kerakligini, mazmunining mukammallik darajsini, talabga javob bera olishligini, qayerdan olinganligini va qayerda saqlanishini aniqlash talab etiladi. O‘rmon fondi yerlari hisobini yuritish va xaritalashtirishda dastlab tadqiqot hududining geografik joylashuvi o‘rganildi. Geografik joylashuviga ko‘ra Zomin tumani Jizzax viloyatining janubiy qismida joylashgan bo‘lib, tumanining shimoliy, markaziy va sharqiy qismi pasttekislik, janubiy -g‘arbiy qir-adir va tog‘lardan iborat. Yer yuzasi shimoldan janubga tomon ko‘tarilib boradi. Adir qismi qumtosh, qum, mergel,

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

lyosslardan tuzilgan, usti chaqirtoshlar bilan qoplangan. Jarlar va yozda qurib qoladigan soylar bor. Bahorda soylar to‘lib oqadi. Shimoliy va markaziy adirlarning tuprog‘i lyoss ustida hosil bo‘lgan bo‘z, och bo‘z, tipik bo‘z tuproqlardan, janubiy qismidagi adirlar gipsli och bo‘z tuproqlardan tarkib topgan.

Zomin tumanidagi o‘rmon fondi yerlarini muhofaza qilish va yo‘q bo‘lib ketishini oldini olish maqsadida Zomin milliy tabiat bog‘i tashkil qilingan. Zomin milliy tabiat bog‘i O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1976-yil 8 - sentabrdagi 523 - sonli qarori asosida tashkil etilgan.

Zomin milliy tabiat bog‘i Turkiston tog‘ tizmasining shimoliy yon bag‘rida, dengiz satxidan 1200 metrdan 4033 metrgacha balandlikda joylashgan, 1976 yilda milliy bog‘ni tashkil qilish va proektini tuzish bo‘yicha asosiy sxema tashkil qilingan. Ajratilgan maydon milliy bog‘ tashkil qilish uchun to‘liq javob beradi. Milliy bog‘ tashkil qilingan vaqtda umumiy maydon 24110 ga bo‘lib, hozirgi vaqtda 23609,2 ga teng. Milliy bog‘ning shimoliy chegarasi Molguzar tog‘ tizmasining janubiy-sharqiy qismidan boshlanib Chortangi darasigacha davom etadi, so‘ngra janubdan shimolga tomon qayrilib Yettikechuvsoy bo‘ylab Duoba qishlog‘igacha davom etadi. Sharqda Usmonlisoy, O‘riklisoy, Sharilloqsoy va Kattanishabar orqali Tojikiston Respublikasi bilan chegaralanadi. G‘arbiy tomondan Qashqasuv va Qizilmozorsoy suv havzalari o‘rtalig‘i orqali Zomin tog‘ o‘rmon qo‘riqxonasi bilan chegaralangan(6-rasm).



6-rasm. Zomin milliy tabiat bog‘i yer maydonlarining sxemasi *(1981-yilda tuzilgan)*

Zomin milliy tabiat bog‘ining iqlimi turfa xildir. Iqlim tez o‘zgaruvchan (kontinental) havoning eng yuqori harorati iyun-avgust oylarida, sovuq harorati esa dekabr-yanvar oylarida bo‘ladi.

Turkiston tog‘ tizmasining janubiy-sharqida joylashgan kuchli tog‘ to‘sig‘ining mavjudligi va shimoliy qismning keng ochiqligi milliy bog‘ning mikro-iqlimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-770-I. Yangi tahrir. 16.04.2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-903. 02.02.2024.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi”. O‘RQ-833. 2023 yil 15 iyul.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. PQ-4850. 06.10.2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer degradatsiyasiga qarshi kurashish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-5986. 12.04.2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil makon” umummilliy dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi qarori. PQ-5285. 30.11.2021.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.